Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

The Link Between Smartphone Use And Attention And Concentration Disorders In Primary School-Aged Children

Saidova Nilufar Jamshid qizi
3rd-year student, Kattaqo'rg'on State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the opportunities provided for children with sensory impairments, particularly hearing impairments, as well as the characteristics of their psychological development and cognitive processes, with a particular focus on the role of attention and concentration. It examines the extent to which various gadgets and smartphones influence the psychological development of children with hearing impairments. Furthermore, the studies conducted by Matthew W. G. Dye and Brennan Terhune-Cotter on the characteristics of attention in children with hearing impairments are reviewed. The article also explores how the development of attention and concentration affects the quality of the educational process.

Keywords: inclusive education, sensory impairment, children with hearing impairments, attention, concentration, cognitive processes, sustained attention, selective attention, compensation, visual perception, smartphone, digital technologies, psychological development.

Kichik Maktab Yoshidagi Bolalarda Diqqat Va Kontsentratsiya Buzilishlarining Smartfonlardan Foydalanish Bilan Bog'liqligi

Saidova Nilufar Jamshid qizi
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Annotatsiya: Ushbu maqola sensor nuqsonli ya'ni aynan eshitish organida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun qanday imkoniyatlar yaratilganligi hamda ularning psixologiyasi va kognitiv jarayonlari ayniqsa, diqqat va konsentratsiyaning tutgan o'rni tahlil etiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishida turli xildagi gadjetlar va smartfonlarning qay darajada ta'sir etish doirasi ko'rib chiqiladi. Undan tashqari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqat xususiyatlarini o'rgangan tadqiqotchilar sifatida Matthew W.G Dye va Brennan Terhune- Cotter tadqiqoti ko'rib chiqiqladi.
Shuningdek diqqat va konsentratsiyaning rivojlanishi ta'lim sifatiga qay darajada ta'sir etishi jarayonlari ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, sensor nuqson, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, diqqat, konsentratsiya, kognitiv jarayonlar, barqaror diqqat, tanlovchan diqqat, kompensatsiya, vizual idrok, smartfon, raqamli texnologiyalar, psixologik rivojlanish.
Аннотация: В данной статье анализируются возможности, созданные для детей с сенсорными нарушениями, в частности с нарушениями слуха, а также особенности их психологического развития и когнитивных процессов, особенно роль внимания и концентрации. Рассматривается степень влияния различных гаджетов и смартфонов на психологическое развитие детей с нарушениями слуха. Кроме того, изучаются исследования Matthew W. G. Dye и Brennan Terhune-Cotter, посвящённые особенностям внимания у детей с нарушениями слуха.
Также рассматривается влияние развития внимания и концентрации на качество образовательного процесса.
Ключевые слова: инклюзивное образование, сенсорные нарушения, дети с нарушениями слуха, внимание, концентрация, когнитивные процессы, устойчивость внимания, избирательное внимание, компенсация, зрительное восприятие, смартфон, цифровые технологии, психологическое развитие.

So'ngi vaqtlarda Respublikamizda ta'lim jarayoniga juda ham katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, biz yoshlarning ushbu tizimda irodali, mas'uliyatli, fidoyi, sadoqatli va har bir sohada o'z shaxsiy qarashlariga ega kadr bo'lib

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

yetishish imkoni berilmoqda. Har bir shaxsning dunyo qarashani kengaytirish, yashash sharoiti hamda ta’lim olish uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilib berishi kelajak avlod uchun eng katta yutuqlardan biridir. Ayniqsa, har bir bolaning huquqlarini belgilab turuvchi Konstitutsiyamizda ularning xavfsizligi, yashash va ta’lim olish huquqlari qonuniy ravishda qayd etilgan. Bugungi ta’lim tizimi yoshlarni kelajagimizningbmunosib vorislari sifaida tayyorlashni bosh maqsad etib tayinlagan. Bunda sog’lom yoshlar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga ham bir xil ta’lim berishga qaratilgan inklyuziv ta’limning me’yoriy-huquqiy asoslari va mazmunini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada, 2023-yil 23-sentyabr kuni O’zbekiston Respublikasining “ ta’lim to’g’risida” qonuni qabul qilinib, inklyuziv ta’lim olish shakli sifatida belgilandi. Bu qonun asosida o’zaro tenglik, ta’lim olishning barcha uchun ochiqliligi, shaxsning qadr-qimmati uning nuqsoniga qarab emas aksincha, barcha shaxslar qonun oldida birdek haq huquqlarga ega ekanligi yana bir karra namoyon bo’ldi. Shu jumladan, 2021-yil 7-iyun kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O’zbekiston Respublikasining O’RQ-695-sonli “ Maxsus tarbiyaga muhtojlarning huquqlari to’g’risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish to’g’risida”gi qonunini imzoladi, unda qayd etilishicha: Maxsus tarbiyaga muhtojlarning huquqlari va maxsus tarbiyaga muhtojlar hayotining barcha jabhalarida boshqalar bilan teng huquqqa layoqatli ekanligini tan olish. Ushbu holatni hisobga olgan holda, tegishli sharoitlarda va qonun hujjatlariga muvofiq maxsus tarbiyaga muhtojligi bo’lgan shaxslarning qo’llab-quvvatlash va qarorlar qabul qilish mexanizmlaridan, shu jumladan, maxsus tarbiyaga muhtojlarning muomala layoqatini cheklashdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash bo’yicha tegishli choralar ko’rish nazarda tutilgan.

Sensor so'zi lotinchadan olingan bo'lib, lug'aviy issiqlik **"sezgich"** , **"sezuvchi"** yoki **"his qiluvchi"** (lotincha *sensus* - "hissiyot", "sezgi", *sentire* - "sezmoq", "his qilmoq") degan ma'nolarni anglatadi. **Sensor nuqsonli shaxslar** deganda birinchi navbatda muhitni idrok etish (sezgi) a'zolarining faoliyati qisman yoki to'liq chiqishi tushuniladi. Bunday shaxslarda ko’rish tizimining xususiyatlari ya’ni ko’zi ojiz va zaif ko’ruvchi shaxslar hamda eshitish tizimi xususiyatlari, kar va zaif eshituvchi insonlar hamda har ikkala xususiyatdan ham ko’rish ham eshitishdan bir vaqtda mahrum bo’lgan kishilar guruhi kiradi. Sensor buzilishlar

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

tug‘ma bo‘lishi yoki hayot davomida ya’ni jarohat, kasallik yoki qarilik tufayli orttirilishi mumkin. “Sensor nuqson → psixologik nuqson” tarzidagi to'g'ridan-to'g'ri sababiy xulosa chiqarish ilmiy jihatdan noto'g'ri va zararli stereotipga olib keladi.

Eshitish, ayniqsa bolalikda, og'zaki nutqni egallash va kommunikatsiyada muhim rol o'ynaydi. Eshitish nuqsonining psixologik oqibatlarini tushunishda markaziy masala - tilga kirish imkoniyatidir. Ammo, eshitmaslikning o'zi intellektual rivojlanishning pastligi yoki ijtimoiy tafakkur buzilishi, kognitiv jarayonlar ya’ni idrok, xotira, xayol va diqqat buzilishining bevosita sababi emas. Eshitish muammolariga ega bo‘lgan shaxslarning atrof-muhitni anglashi va undagi hodisalarni idrok etishi o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik qonuniyatlarga ega. Eshitish analizatorining to‘liq yoki qisman cheklanganligi inson organizmida boshqa sezgi organlarining faollashuviga va kompensatorlik (o‘rin bosish) mexanizmlarining ishga tushishiga sabab bo‘ladi. Natijada, bunday shaxslar tashqi olam, predmetlar va ijtimoiy muloqot tizimi haqidagi axborotlarning mutlaq ko‘p qismini vizual (ko‘rish) kanallari orqali qabul qiladi va qayta ishlaydi. Ushbu jarayonda vizual diqqat va uni jamlash muloqot va ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi eng bosh omilga aylanadi.

Eshitish nuqsoniga ega shaxslar muloqot jarayonida axborotni samarali o‘zlashtirishi uchun quyidagi to‘rtta asosiy vizual va sensor kanallarga tayanadi: Ko‘rish va yuz ifodasi (Mimika): Inson yuzidagi mikromonitoring - ya’ni mimika, ko‘z qarashlari va yuz mushaklarining harakati eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxs uchun eng birlamchi emotsional ko‘rsatkichdir. Ular suhbatdoshning ichki kechinmalari, kayfiyati va fikrining ohangini (ijobiy yoki salbiy ekanligini) aynan yuz ifodasiga qarab aniqlaydilar. Bu esa muhitni to‘g‘ri baholashda fundamental ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Lab harakati (Artikulyatsiya): Og‘zaki nutqni vizual tahlil qilish, ya’ni nutq so‘zlayotgan insonning lab, til va jag‘ harakatlariga qarab so‘zlarni ajratish (labdan o‘qish) murakkab va o‘ta muhim jarayondir. Bu qobiliyat eshitish tanqisligi bor shaxslarga tovushli nutqni vizual obrazga aylantirish va suhbat mazmunini bevosita qabul qilish imkonini beradi. Taktil signallar va tebranishlar: Vizual aloqadan tashqari, yaqin masofadagi o‘zaro aloqalarda sensor idrok ham

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

faollashadi. Atrofdagi obyektlarning tebranishi (vibratsiya) yoki tana teginishlari (taktil signallar) orqali subyekt diqqatini jalb qilish, xavf-xatardan ogohlantirish va yaqin muloqot aloqasini o‘rnatish muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Eshitish funksiyasining yetishmovchiligi ko‘rish va taktil idrok tizimining sezgirligini keskin oshiradi. Vizual komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi eshitish nuqsoniga ega shaxslarga jamiyatda erkin muloqot qilish, ta’lim olish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkonini beruvchi asosiy poydevordir.

Sensor nuqsonlari bo‘lgan bolalarda diqqat va konsentratsiya xususiyatlarini o‘rganish psixologiya va maxsus pedagogika sohasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. D. Lygis, M. W. G. Dye, P. C. Hauser, V. Tadić, L. Pring, N. Dale, M. T. Daza va J. Phillips-Silver kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda eshitish va ko‘rish imkoniyatlarining cheklanishi sharoitida diqqatning barqarorligi, tanlovchanligi, taqsimlanishi va ko‘chishi kabi xususiyatlar o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlar sensor nuqsonli bolalarning diqqat jarayonlarini bir xil mezon asosida baholash mumkin emasligini, ularning individual rivojlanish xususiyatlari, sensor imkoniyatlari va til tajribasini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Matthew W. G. Dye va Brennan Terhune-Cotter (2023) tadqiqotida 7-13 yoshdagi jami 108 nafar kar bola ishtirok etgan. Ularning barchasi ingliz tili va Amerika imo-ishora tilidan (ASL) foydalanuvchi ikki tilli bolalar bo‘lgan. Tadqiqot uzoq muddatli kuzatuv asosida olib borilgan M. W. G. Dye va B. Terhune-Cotter (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda 7-13 yoshdagi 108 nafar kar bolada vizual barqaror tanlovchan diqqat va javobni tormozlash jarayonlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bolalarning ingliz tili va Amerika imo-ishora tilini bilish darajasi diqqat hamda kognitiv nazorat ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘liqlik namoyon qilgan. Xususan, ingliz tilini bilish darajasi barqaror tanlovchan diqqat, imo-ishora tilini bilish darajasi esa javobni tormozlash bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Mazkur tadqiqot sensor nuqsonli bolalarda diqqat jarayonlarini o‘rganishda til tajribasi va individual rivojlanish xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadi kar bolalarning diqqat va ijro funksiyalaridagi individual farqlarni o‘rganish bo‘lgan. Avvalgi tadqiqotlarning ko‘pchiligida kar va eshituvchi bolalar o‘zaro

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

taqqoslangan. Bunda ko‘pincha eshitish imkoniyatining cheklanishi vizual diqqatga qanday ta'sir qilishi o‘rganilgan. Dye va Terhune-Cotter esa masalaga biroz boshqacha yondashgan. Ular faqat kar bolalar va eshituvchi bolalar o‘rtasidagi farqni aniqlash bilan cheklanmay, kar bolalarning o‘z guruhidagi diqqat ko‘rsatkichlari nima sababdan turlicha namoyon bo‘lishini o‘rganishga e'tibor qaratgan. Ularning diqqat markazida ikkita muhim omil bo‘lgan:
1. Vizual barqaror tanlovchan diqqat.
2. Javobni tormozlash, ya'ni keraksiz javobni nazorat qilish.

Shuningdek, bolalarning ingliz tili va Amerika imo-ishora tilini bilish darajasi ushbu psixologik jarayonlar bilan qanday bog‘liqligi tekshirilgan. Mualliflar o’z tadqiqotlarida Continuous Performance Test (CPT), ya'ni uzluksiz bajariladigan diqqat testidan foydalanganlar. Bolalarga planshet ekranida fermer xo‘jaligi tasvirlangan multfilmga o‘xshash manzara ko‘rsatilgan. Ekranda turli hayvonlarning tasvirlari ketma-ket paydo bo‘lgan. Bolalarga planshet ekranida fermer xo‘jaligi tasvirlangan multfilmga o‘xshash manzara ko‘rsatilgan. Ekranda turli hayvonlarning tasvirlari ketma-ket paydo bo‘lgan. Bolalarga quyidagi vazifa berilgan:
1. Hayvonlar ketma-ketligini diqqat bilan kuzatish.
2. Tulki (fox) tasviridan keyin jo‘ja (chick) paydo bo‘lishini aniqlash. Aynan shu ketma-ketlik yuzaga kelganda ekrandagi qizil tugmani bosish. Boshqa hayvonlar ketma-ketligida esa tugmani bosmaslik.Umdan tashqari tadqiqotning yana bir muhim jihati - uning uzoq muddatli xarakterga ega ekanligidir.
Mualliflar to‘rt bosqichli tezlashtirilgan longitudinal dizayndan foydalanganlar. Bunda bolalar taxminan 2-3 yil davomida kuzatilgan va to‘rtta ma'lumot yig‘ish bosqichi tashkil etilgan. Tadqiqotning yana bir muhim jihati - uning uzoq muddatli xarakterga ega ekanligidir.
Mualliflar to‘rt bosqichli tezlashtirilgan longitudinal dizayndan foydalanganlar. Bunda bolalar taxminan 2-3 yil davomida kuzatilgan va to‘rtta ma'lumot yig‘ish bosqichi tashkil etilgan. Tadqiqot natijalari bolalarning yoshi ortishi bilan vizual barqaror tanlovchan diqqat ko‘rsatkichlari yaxshilanishi, impulsiv javoblar esa kamayib borishini ko‘rsatgan. Shuningdek, ingliz tilini bilish darajasi vizual

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

barqaror tanlovchan diqqat bilan, Amerika imo-ishora tilini egallash darajasi esa javobni tormozlash ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘liqlik namoyon etgan. Mualliflar ushbu holatni til tajribasi, muloqot jarayoni va kognitiv nazoratning o‘zaro munosabati bilan izohlaganlar.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda kompensatsiya jarayoni eshitish analizatorining cheklangan imkoniyatlarini boshqa sensor tizimlar, xususan, ko‘rish va taktil sezgilar orqali qisman to‘ldirish bilan bog‘liq. Bunda bolaning vizual idroki, lab harakatlarini kuzatishi, imo-ishora tilidan foydalanishi va predmetlar bilan amaliy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Kompensator imkoniyatlarning rivojlanishi bolaning atrof-muhit haqidagi axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha kommunikativ va ta'limiy imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, smartfonlardagi subtitrlar, matnli xabarlar, vizual bildirishnomalar, imo-ishora tiliga oid videomateriallar hamda nutqni matnga aylantiruvchi dasturlar eshitish orqali qabul qilishdagi ayrim qiyinchiliklarni qoplashga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, interaktiv ta'limiy ilovalar orqali bola topshiriqlarni vizual kuzatish, mustaqil bajarish va o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar kompensator ta'lim vositasi vazifasini bajaradi. Smartfon ekranidagi tasvirlar, animatsiyalar, yozuvlar va vizual belgilar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning vizual diqqatini jalb etishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Biroq tez-tez almashinuvchi tasvirlar va ortiqcha raqamli stimullar diqqatning bir faoliyatdan boshqasiga ko‘chishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois raqamli vositalardan foydalanishda bolaning diqqat barqarorligi, konsentratsiyasi va individual sensor imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bo‘lgan kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanishi, kognitiv jarayonlari, xususan, diqqat va konsentratsiya xususiyatlarini o‘rganish bugungi kun psixologiyasi va maxsus pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bolaning eshitish imkoniyatidagi cheklanish uning atrof-muhitni idrok etishi, axborotni qabul

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

qilishi va qayta ishlash jarayonlarida o‘ziga xos yondashuvlarni talab etadi. Biroq eshitishdagi nuqsonni bolaning intellektual salohiyati yoki aqliy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan tenglashtirish mumkin emas. Har bir bolaning individual xususiyatlari, til tajribasi, ta’lim muhiti va ijtimoiy munosabatlari uning psixologik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Ayniqsa, diqqat va konsentratsiya eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday bolalar ko‘plab axborotlarni vizual idrok orqali qabul qiladilar. O‘qituvchining yuz ifodasi, lab harakatlari, imo-ishoralar, yozma ko‘rsatmalar va ko‘rgazmali materiallarni kuzatish jarayonida vizual diqqatning barqarorligi hamda tanlovchanligi muhim rol o‘ynaydi. Bolaning diqqatini muayyan faoliyatga yo‘naltira olishi, uni yetarli vaqt davomida saqlashi, muhim axborotni ikkinchi darajali axborotdan ajrata bilishi va zarur vaziyatlarda diqqatini bir faoliyatdan boshqasiga ko‘chira olishi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois diqqat va konsentratsiyani rivojlantirish faqat ta’lim jarayonidagi natija emas, balki bolaning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi va ijtimoiy muhitga moslashishida ham muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, eshitish analizatorining cheklangan imkoniyatlarini boshqa sensor tizimlar orqali qisman to‘ldirishga xizmat qiluvchi kompensatsiya mexanizmlari bolaning psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko‘rish va taktil idrok, lab harakatlarini kuzatish, imo-ishora tilidan foydalanish hamda predmetlar bilan amaliy faoliyat olib borish bolaning axborotni qabul qilish va o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayonda vizual diqqat va konsentratsiyaning rivojlanganligi kompensator imkoniyatlardan samarali foydalanishga yordam beradi. Demak, bolaning mavjud imkoniyatlariga tayanish, uning kuchli tomonlarini aniqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik yondashuvlarni qo‘llash zarur.

Bugungi raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda smartfon va boshqa gadjetlarning eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar hayotidagi o‘rni ham alohida e’tiborga loyiq. Xususan, subtitrlar, matnli xabarlar, vizual bildirishnomalar, imo-ishora tilidagi videomateriallar va nutqni matnga aylantiruvchi dasturlar bolaning

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

axborot olish hamda muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Interaktiv ta’limiy ilovalar esa o‘quv materiallarini ko‘rgazmali shaklda taqdim etish, topshiriqlarni mustaqil bajarish va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Mazkur jarayonda pedagogning o‘rni beqiyosdir. Pedagog, avvalo, bolaning individual sensor imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim muhitini tashkil etishi lozim. Pedagog bolaning faqat bilim olish natijalarini emas, balki diqqatni boshqarish, mustaqil ishlash va muloqotga kirishish ko‘nikmalaridagi rivojlanishni ham kuzatib borishi kerak.

Psixolog esa bolaning diqqat va konsentratsiya xususiyatlarini individual tarzda o‘rganish, uning kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlash hamda tegishli korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etishda muhim mutaxassis hisoblanadi. Bunda diqqatning barqarorligi, tanlovchanligi, ko‘chishi va taqsimlanishi kabi xususiyatlarni baholash bilan bir qatorda, bolaning emotsional holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, muloqot ehtiyoji va ijtimoiy moslashuviga ham e’tibor qaratish lozim. Psixolog tomonidan olib boriladigan individual va guruhiy mashg‘ulotlar, ota-onalar hamda pedagoglar bilan maslahatlashuvlar bolaning rivojlanishida yagona qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirishga yordam beradi.

Ota-onalarning ishtiroki ham ushbu jarayonning ajralmas qismidir. Chunki bola oilada olgan tarbiyasi, kundalik muloqoti va ota-onasining munosabati orqali o‘zining dastlabki ijtimoiy tajribasini shakllantiradi. Ota-onalar farzandining imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, uni boshqa bolalar bilan taqqoslamasligi, mustaqil faoliyatga undashi va erishgan natijalarini rag‘batlantirishi zarur. Shuningdek, smartfonlardan foydalanish jarayonida bolaning yoshiga va individual ehtiyojlariga mos ta’limiy kontentni tanlash, foydalanish maqsadini belgilash hamda raqamli faoliyatni boshqa rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar bilan muvozanatlashtirish muhimdir. Ota-onaning farzand bilan muntazam muloqot qilishi, uning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashi va pedagog hamda psixolog bilan hamkorlik qilishi diqqat va konsentratsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim shartlardan biridir. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolaning rivojlanishini faqat uning mavjud cheklanishlari bilan emas, balki foydalanishi

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

mumkin bo‘lgan imkoniyatlari, ijtimoiy faolligi, ta’limiy tajribasi va atrofidagi qo‘llab-quvvatlovchi muhit bilan baholash maqsadga muvofiqdir. Zero, diqqat va konsentratsiyani rivojlantirish, kompensator imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash bolaning nafaqat ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki mustaqil shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ham zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi “ Ta’lim to’g’risidagi qonuni (2023-yil 23-sentyabr qabul qilingan). https://lex.uz/docs/-5013007
2. O’zbekiston Respublikasining qonuni “Maxsus tarbiyaga muhtojlar huquqlari to’g’risidagi konvevsiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida” 2021-yil 7-iyun, O’RQ 695-son. https://lex.uz/ru/docs/5447430
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr). https://www.un.org/development/desa/disabilities/convention-on-the-rights-of-persons-with-disabilities.html
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. 24-modda: Ta’lim. - URL: https://www.un.org/development/desa/disabilities/convention-on%20the-rights-of-persons-with-disabilities/article-24-education.html
5. Inklyuziv ta’lim. Darslik/ Madatov I.Y; O’zR oliy ta’lim fan va innavatsiyalar vazirligi Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filliali, 2024.- 240 b.
6. Dye M. W. G., Terhune-Cotter B. Development of visual sustained selective attention and response inhibition in deaf children // Memory & Cognition. - 2023. - Vol. 51, No. 3. - P. 509-525. - DOI: https://doi.org/10.3758/s13421-022-01330-1.

Academicia Review-A Multidisciplinary Online Journal
ISSN (Online): 3070-6726
Website: https://academicia.org
Volume 2, Issue 11, November, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

7. Matthew W G Dye et al. Mem Cognit. 2023 Apr. Development of visual sustained selective attention and response inhibition in deaf children - PubMed https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/35794408/
8. Dye, M. W. G., Hauser, P. C. (2014). Sustained Attention, Selective Attention and Cognitive Control in Deaf and Hearing Children // Hearing Research. - Vol. 309. - P. 94-102. DOI: https://doi.org/10.1016/j.heares.2013.12.001.
9. Lygis, D. (1981). The Investigation of Attention Properties in Normal and Abnormal Children // Psichologija. - Vol. 2. - P. 41-51. DOI: https://doi.org/10.15388/Psichol.1981.2.9180.